



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

**ONLINE
CONFERENCE**

**"INNOVATIVE
ACHIEVEMENTS
IN SCIENCE 2025 "**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE**



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Part 39

Issue 1

RUSSIA 2025

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025: a collection scientific works of the International scientific conference (27th March, 2025) – Chelyabinsk, Russia : "CESS", 2025. Part 39, Issue 1 – 231p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference " **INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025**". Which took place in Chelyabinsk on March 27th, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025

© Authors, 2025



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

<i>"JAMIYATDA OILANING O'RNINI VA UNING MAVQEYI OILA EVALYUTSIYASI"</i> Mambetiyarova Venera Bahromova Iroda Otaniyoz qizi	168
<i>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FONEMATIK IDROKINING ONTOGENETIK RIVOJLANISHI</i> Mansurova Sadoqat Muzaffar qizi Axmedova Zuxra Mirzabekovna	172
<i>RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOYDALANUVCHI MA'LUMOTLARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR</i> Oripov Mansurbek Otabek o'g'li Qosimova Hilola Jamshedovna	176
<i>O'ZBEKISTONDA RAQAMLI MARKETING BOZORI: O'SISH SURATI VA QONUNCHILIK MASALALARI</i> Rustamov Muhammadali Jo'rabek O'g'li Tairova Ma'suma Muxammedrizaevna	184
<i>RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDAGI NOTENGLIK VA UNING IQTISODIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI.</i> To'rayeva Sabina Fazliddin qizi Turdieva Muqaddas Umarovna	190
<i>INSON KAPITALINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O'RNINI</i> Toxirov Bexruz Shuxratovich Giyazova Nozima Bayazovna	196
<i>KORPORATIV MOLIYADA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI</i> Eshanqulov Rasul Nodir o'g'li	201
<i>КЛИНИКО- РЕНТГЕНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОСТНОЙ ТКАНИ ПРИ ИСКУССТВЕННЫХ ОПОРАХ НА ЧЕЛЮСТЯХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОСТЕОТРОПНОГО МАТЕРИАЛА ПРИ ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ</i> Маннанов Жавлонбек Жамолиддинович Режаббоевой Наврузы Комилжон кизи Халматова Матлуба Артыковна	204
<i>TURKIY TILLAR TARAQQIYOTINING UMUMIY TAVSIFI</i> Abdullayeva Hilola Ismailova Maftuna Kenjaboy qizi	207



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI MARKETING BOZORI: O'SISH SURATI VA QONUNCHILIK MASALALARI

Rustamov Muhammadali Jo'rabek O'g'li

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

Tairova Ma'suma Muxammedrizaevna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakul'teti Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti va internet-marketing sohasidagi qonunchilik masalalari tahlil qilinadi. Internet-reklama bozorining o'sishi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari statistik asosda ko'rib chiqiladi. Yevropa Ittifoqi va AQShning ilg'or tajribasi tahlil qilinib, O'zbekistonda raqamli marketingni tartibga solish uchun zarur chora-tadbirlar taklif qilinadi. Maqola internet-marketingni rivojlantirish uchun xalqaro standartlarga mos qonunchilik yaratishning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, internet-marketing, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, qonunchilik, GDPR, reklama bozori.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. O'zbekiston ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va internet-marketing sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning yangi bosqichiga ko'tarilmoqda. So'nggi yillarda, xususan, 2023-2024 yillarda internetga kirish imkoniyatlari sezilarli darajada oshib, raqamli xizmatlarning kengayishi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va marketingni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratdi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi qonunchilik tizimining tezkor yangilanishini talab etadi. Hozirgi kunda, internet-marketing sohasida yuzaga kelayotgan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, foydalanuvchilar huquqlarini ta'minlash va reklama faoliyatini tartibga solish kabi dolzarb masalalar mavjud. 2023 yilgi global texnologik o'zgarishlar va huquqiy talablar nuqtai nazaridan, O'zbekistonning raqamli marketingni tartibga solish uchun huquqiy bazani yangilash zarurati aniq ko'rinmoqda.

Dunyo miqyosida, masalan, Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan GDPR (General Data Protection Regulation) qonuni va AQShning Federal savdo komissiyasi (FTC) tomonidan amalga oshirilgan tartibga solish tajribalari raqamli iqtisodiyotdagi yuridik muammolarni samarali hal qilishda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Ushbu tajribalarni hisobga olgan holda, O'zbekistonda raqamli marketingni qonuniy tartibga solish orqali sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin.

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti va internet-marketing sohasidagi qonunchilik muammolarini tahlil qilish, global tajribalarni o'rganish va mamlakatimiz uchun amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Statistik ma'lumotlar asosida internet-marketingdagi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

muammolarni tahlil qilib, ularni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning ahamiyati yoritiladi.

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti oxirgi yillarda jadal rivojlanmoqda, bu esa mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Internetga kirish darajasi 2023-yilda 80% dan oshgani va foydalanuvchilar soni 17 milliondan ortgani (O'zstat, 2023) mamlakatda raqamli platformalar, jumladan, internet-marketing uchun keng imkoniyatlar yaratilganligini ko'rsatadi. Bu boradagi o'sishning asosiy omili ijtimoiy tarmoqlarni kengroq ishlatish va reklama strategiyalarining internetga moslashuvidir. Quydagi jadvalda dunyo bo'ylab eng mashhur ijtimoiy tarmoqlarning 2023-yildagi ishlatilish statistikasi keltirilgan:

1-jadval

Mashhur ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilar soni va yillik o'sish darajasi.⁵⁰

Ijtimoiy Tarmoq	Foydalanuvchilar soni(mlrd)	Yillik o'sish (%)
Facebook	2.96	7%
YouTube	2.56	5%
Instagram	2.00	8%

Jadvalga ko'ra, eng ko'p ishlatiladigan ijtimoiy tarmoq Facebook bo'lib, undan keyin YouTube va Instagram keladi. Bu tarmoqlarda reklama qilishning ko'payishi raqamli reklama bozorining yuksalishiga xizmat qiladi.

Facebook, YouTube va Instagramning global ishlatilish statistikalari raqamli marketingning o'sish sur'atlarini aks ettiradi. Ushbu ijtimoiy tarmoqlar o'z foydalanuvchilariga to'g'ridan-to'g'ri reklama taqdim qilish orqali yuqori samaradorlikka erishmoqda. Facebookning yiliga 7% o'sish sur'ati uning reklama sohasidagi samaradorligini ko'rsatadi, shuningdek, YouTube va Instagramning o'sish sur'ati marketing strategiyalariga yangi imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston sharoitida ham bu tarmoqlarning ishlatilishi va ularda reklama qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygan. O'zbekistonda internet-marketingni rivojlantirish uchun, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilishning ahamiyati oshmoqda. Biroq, reklama bozori rivojlanishi bilan birga, bu sohani tartibga soluvchi qonunchilik tizimi ham takomillashtirilishi lozim. Xususan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va foydalanuvchi huquqlarini ta'minlashga oid yuridik chora-tadbirlar zarur.

Shu bilan birga, bu rivojlanish qonunchilik tizimida mavjud bo'shliqlarni ham yuzaga chiqaradi. Internet-marketingda reklama va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Internet-marketing sohasi rivojlanishi davomida shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish masalasi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston qonunchiligida ushbu masalalar hali yetarli darajada tartibga solinmagan. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xorijiy tajribalar, masalan, Yevropa Ittifoqining GDPR qonuni, O'zbekistonga o'rnak bo'lishi mumkin. Ushbu qonun ma'lumotlarning maxfiyligi va foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi. 2022-yilda GDPR sababli

⁵⁰ <https://mkt.uz> (<https://mkt.uz/>)




"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Yevropa mamlakatlarida internet-reklama bilan bog'liq qoidabuzarliklar uchun 300 million yevrodan oshiq jarimalar qo'llanilgan (Yevropa Komissiyasi). Bu tizim internet-marketingda shaffoflik va foydalanuvchilarning ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston marketing bozorining o'sish sur'ati raqamli reklama hajmidagi ijobiy o'zgarishlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2023-yilda internet-reklama bozorining hajmi 3,5 trillion so'mni tashkil etdi (O'zbekiston Marketing Tahlil Markazi). Bu ko'rsatkichlar raqamli marketing sektorining iqtisodiy salohiyatini ko'rsatsa-da, ushbu bozorni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning zaifligi rivojlanishni sekinlashtirishi mumkin.

Shuningdek, 2024-yilda yangi qoidalarining qabul qilinishi reklama hajmining 15% ga oshishini prognoz qilmoqda. Ammo bu o'sishning barqaror bo'lishi uchun qonunchilik tizimi yaxlit va xalqaro standartlarga mos bo'lishi lozim. Xorijiy tajriba, xususan, AQSh va Yevropa Ittifoqining yondashuvlari O'zbekiston uchun foydali bo'lishi mumkin. AQShda raqamli marketing faoliyatini tartibga soluvchi Federal Savdo Komissiyasi (FTC) samarali mexanizmlar orqali internet-reklama va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlab kelmoqda. Masalan, 2023-yilda AQShda raqamli marketing bozorining hajmi 300 milliard dollardan oshdi va ushbu soha yiliga o'rtacha 20% o'sish sur'atini namoyish qilmoqda (Statista, 2023). Bu ko'rsatkichlar reklama samaradorligini oshirish va ma'lumotlarning himoyalanihiga e'tibor berish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston va AQSH raqamli reklama bozori o'sish prognozi⁵¹

Yuqoridagi diagrammada O'zbekiston va AQShning raqamli reklama bozorida o'sish prognozi tasvirlangan. O'zbekistonda 2023-yilda reklama bozori hajmi 3,5 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda yangi qoidalar qabul qilinishi hisobiga 15% o'sish prognoz qilinmoqda. Bu esa bozorda 4,025 trillion so'm hajm hosil bo'lishini anglatadi.

AQShda esa raqamli reklama bozori 2023-yilda 300 milliard dollar bo'lib, har yili 20% o'sish sur'ati kuzatilmoqda. 2024-yilda bu ko'rsatkich 360 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bu ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkin: O'zbekistonda reklama bozori

⁵¹ <https://stat.uz> (<https://stat.uz/>)



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

nisbatan kichik bo'lsa-da, o'sish sur'ati ijobiy. Lekin barqaror rivojlanish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish va qonunchilikni takomillashtirish zarur

O'zbekiston sharoitida qonunchilikni kuchaytirish nafaqat soha bo'yicha tartibni o'rnatadi, balki xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Bunda ma'lumotlar oshkoraligini ta'minlash, foydalanuvchilar roziligiga asoslangan reklama tizimlarini joriy etish va xalqaro standartlarga moslashgan mexanizmlarni ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Masalan, reklama va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash orqali foydalanuvchi ishonchini oshirish, raqamli marketing sektorining rivojlanishiga qo'shimcha turtki beradi. Raqamli iqtisodiyotda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli marketing bozorini tartibga solish bo'yicha qonunchilikni kuchaytirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqamli transformatsiyasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish va milliy qonunchilikni takomillashtirish orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Mazkur yondashuvlar internet-marketing va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dolzarb muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonunchilikda raqamli iqtisodiyot uchun alohida e'tibor qaratilishi milliy bozorning rivojlanishida ijobiy natijalar keltiradi.

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda va bu rivojlanishning barqarorligini ta'minlash uchun internet-marketing sohasi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatda internet foydalanuvchilari sonining oshishi va raqamli reklama bozorining kengayishi iqtisodiyotga sezilarli turtki bergan bo'lsa-da, qonunchilik tizimida mavjud bo'shliqlar bu jarayonning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Global tajribalar, xususan, Yevropa Ittifoqining GDPR qonuni va AQShning FTC tizimlari internet-marketingni tartibga solishning muvaffaqiyatli namunalari sifatida xizmat qilmoqda.

Ushbu yondashuvlar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va reklama faoliyatining shaffofligini ta'minlash orqali foydalanuvchilarning ishonchini oshirib, iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda qonunchilik tizimini mustahkamlash, ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlash va raqamli marketing faoliyatini tartibga solish davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu sababli, O'zbekiston xalqaro standartlarga mos keluvchi va mahalliy sharoitlarga moslashgan normativ-huquqiy tizimni yaratishga intilishi lozim. Bu esa mamlakatning global raqamli iqtisodiyot bozorida o'z o'rnini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION MARKETINGDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. European Journal Of Business Startups And Open Society, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREAZING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(49), 250-256.
8. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO 'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 193-197.
9. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 371-376.
10. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
11. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 136-143.
12. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 35(35).
13. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Indexing, 1(1).
14. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.
15. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
16. Federal Trade Commission (FTC). AQShda raqamli marketing va internet-reklama faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.
17. Manba: <https://www.ftc.gov> (<https://www.ftc.gov/>)



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

18. General Data Protection Regulation (GDPR) (2018). Yevropa Ittifoqida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik tizimi.
19. Manba: <https://gdpr-info.eu> (<https://gdpr-info.eu/>)